

9. Saidova G. Sotsialnaya politika pravitelstva Uzbekistana v perexodnom periode: dostijeniye i problemi //Ekonomicheskoye obozreniye, 1998, №1.-15 s. va boshq.

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SOLIQ MA'MURCHILIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING ZARURATI VA ASOSIY YO'NALISHLARI

**XUSANOV SHOXRUX NIGMATULLAEVICH**

*O'zbekiston Respublikasi Bakn-moliya akademiyasi magistranti*

### **ARTICLE INFO**

#### **ARTICLE HISTORY:**

*Received: 18.04.2025*

*Revised: 19.04.2025*

*Accepted: 23.04.2025*

### **ABSTRACT:**

Ushbu maqolada O'zbekiston soliq ma'murchilagini takomillashtirishning zarurati va asosiy yo'nalishlari o'rGANildi. Unda byudjet-soliq siyosatining zamonaviy dolzarb muammolari xorijiy va mahalliy olimlarimizning ilmiy izlanishlari keng o'rganilgan. Respublikamizda Soliq ma'murchiligida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlaridan olinadigan soliqlarning byudjet daromadlarini shakllantirishdagi salmog'i, hududlar bo'yicha mahalliy byudjet daromadlari tushumlari va soliq to'lovchilar va ular to'lagan soliqlar hamda boshqa majburiy to'lovlar ko'rsatkichlari tahlil qilingan. O'zbekiston Respublikasi Soliq ma'murchilagini takomillashtirish zaruriyati va takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari sifatida ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**KEYWORDS:**  
*soliq, soliq islohotlari, soliq ma'murchiligi, davlat byudjeti, mahalliy byudjet, byudjet nazorati, byudjet daromadlari, byudjet xarajatlari, byudjet-soliq siyosati.*

**Kirish.** O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning markaziy bo'g'inida soliq sohasidagi islohotlar turibdi. Mamlakatimizda "Soliq yukini kamaytirish, biznes yuritish uchun yanada qulay sharoitlar yaratish "yashirin" iqtisodiyotga barham berishning yagona yo'lidir. Shuning uchun bu borada ta'sirchan choralar ni nazarda tutadigan alohida dastur ishlab chiqish" [1]ga e'tibor qaratildi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlari tomonidan erishilgan natijalarni tahlil qilish bilan birgalikda ushbu

yo‘nalishda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar ham ancha samarali bo‘ldi. Respublikada mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlari faoliyatining rivojlanishi va ular faoliyatini erkinlashtirishga qaratilgan qator meyoriy hujjatlar qabul qilinib, bosqichma-bosqich milliy iqtisodiyotga joriy etib kelinmoqda.

**Adabiyotlar sharhi.** Xorijlik iqtisodchi olim, professor D.G.Chernikning fikricha, “Soliqlar davlat tomonidan xo‘jalik subektlari va fuqarolardan qonuniy tartibda o‘rnatilgan stavkalarda undirib olinadigan majburiy yig‘imlarni o‘zida aks ettiradi” [2].

Mamlakatdagi ba’zi bir iqtisodchilari soliqlarni milliy daromadni taqsimlash vositasi sifatida ifodalashga harakat qilganlar: “Soliqlar-milliy daromadni taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonida uning bir qismini davlat ixtiyoriga olish shaklidir” [3].

Iqtisodchi olim T.S.Malikov “Byudjet-soliq siyosati” nomli monografiyasida “... zamonaviy soliq siyosatini ishlab chiqish va uni hayotga tadbiq etishning fundamental asoslari, soliq yukini yengillashtirish – soliq siyosatining eng dolzarb muammosi, soliq imtiyozlarini oqilona taqdim etish – soliq siyosati samaradorligini ta’minalashning garovi ekanligi, byudjet-soliq siyosatining zamonaviy dolzarb muammolari, ularga nisbatan bildirilayotgan e’tirozlar, muammolarni hal qilish yo‘llari, O‘zbekistonda byudjet-soliq siyosatini takomillashtirishning fundamental asoslari (ustuvor yo‘nalishlari) to‘g‘risida aniq tasavvurga va mustahkam pozitsiyaga ega bo‘lmoqlari lozim”, deb fikr bildirganlar [4].

**Metodologiya.** Xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribalari asosida O‘zbekistonda davlat budjeti mablag‘laridan foydalanichni takomillashtirish yo‘llari, soliq ma’murchiliginin takomillashtirishning zarurati va asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha nazariy va emperik adabiyotlar sharhlar o‘rganildi, soliq ma’murchiligidagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlaridan olinadigan soliqlarning byudjet daromadlarini shakllantirishdagi salmog‘i va soliq ma’murchiligidagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlariga nisbatan soliq yukini baholashning iqtisodiy tahlili qilindi.

**Tahlil va natijalar.** Hozirgi kunga kelib, O‘zbekiston Respublikasi jamlangan byudjetining kup qismini Davlat byudjeti tashkil etadi. Davlat byudjeti o‘z navbatidan o‘zining daromad va xarajatlariga egadir. Davlat byudjeti daromadlarini 94 foizga yaqin qismini soliqli daromadlar tashkil etadi.

Yana shuni alohida qayd etish o‘rinlikki, 2017-2021 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi hamda 2022-2026 yillarda O‘zbekiston rivojlantirish bo‘yicha Taraqqiyot strategiyasida davlat byudjeti daromadlari, xususan, mahalliy byudjetlar mustahkam daromad bazasini ta’minalashga qaratilgan tizimli

chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqish va amalga oshirish belgilangan. Bu borada bevosita kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali byudjetga soliq tushumini oshirish vazifasi mavjud. Buning uchun sohada keng kulamli soliq ma'murchiligi takomillashtirildi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga to'lanadigan mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovi va bozorlardan tushayotgan daromadlar Toshkent shahri byudjeti va tumanlar byudjetlari o'rtasida taqsimlanadi, yuridik shaxslarning yer soliqlaridan tushadigan tushumlar, suv resurslaridan foydalanish solig'i, jismoniy shaxslardan olinadigan mulk solig'i to'liq hajmda Toshkent shahri byudjetiga yo'naltiriladi, yuridik shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliq tushumlari, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish uchun olinadigan soliqlar, savdo va umumiyl ovqatlanish korxonalari uchun yagona soliq to'lovi, jismoniy shaxslarning daromad soliqlari O'zbekiston Respublikasining respublika byudjeti va Toshkent shahrining mahalliy byudjeti o'rtasida tegishli normativlarga ko'ra taqsimlanishi belgilandi.

1-jadval

Ko'rsatkic hlar	2020yil		2021yil		2022yil		2023yil		2024yil	
	mlrd. so'm	%								
<b>Daromadlar , (DMJsiz) - JAMI</b>	31730 5	10 0	36493 3	10 0	41043 4	10 0	49681 0	10 0	79099 1	10 0
<b>Bevosita soliqlar</b>	7433 2,4	2,4	8798, ,1	2,4	9852, ,0	2,4	11539 4	2,2	15656 2	19 ,8
Yuridik shaxslarfoyda solig'i	1120, 3,5	3,5	1180, 2	3,2	1215, 0	3,0	1475, 0	3,0	3502, 4	4,4
Savdo va umumiyl ovqatlanish korxonalar yagona soliq	954,4 0,3	3,0	1207, 3	3,3	1515, 7	3,7	1707, 4	3,4	2108, 7	2,7

to‘lovi										
Mikrofirma va kichik korxonalar yagona soliq to‘lovi	967,9	3 1	1191,	3 3	1440,	3 5	1751,	3 5	2597,	3 3
Jismoniy shaxslar daromadiga soliq	3261,	10 ,3	3800,	10 ,4	4137,	10 ,1	4876,	9 8	6422,	8 1
Tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslar daromadig a qat’iysoliq	553, 1	1, 7	681,5	1 ,9	822,3	2 ,0	1042 ,8	2 ,1	1024 ,8	1 ,3
Obodonlash tirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlanirish soliq‘i	575, 7	1, 8	736,2	2 ,0	721,9	1 ,8	685, 5	1 ,4	-	

O‘zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan soliq tushumlarining 2020-2024 yillardagi o‘zgarish dinamikasini tahlil qilish, mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi, soliq siyosatining samaradorligi va kichik biznesning rivojlanish tendensiyalarini o‘rganish uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu tahlilda, soliq tushumlarining umumiy o‘sishi, asosiy soliq turlari bo‘yicha o‘zgarishlar va kichik biznesga ta’siri alohida ko’rib chiqiladi.

Yuqorida jadval ma’lumotlari asosida O‘zbekiston Respublikasining soliq tushumlari

2020-2024 yillar davomida o'sish sur'atlarini barqaror bo'lganligini ko'rsak bo'ladi. Jumladan, 2020 yilda umumi soliq tushumlari 31,730.5 milliard so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2024 yilga kelib bu miqdor 79,099.1 milliard so'mgacha yetib borgan. Mazkur o'sish 149 foizni tashkil etadi va mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ifodalaydi. Ayniqsa, 2023-2024 yillarda soliq tushumlarining keskin o'sishi (2023 yilga nisbatan 2024 yilda 59,2 foizga o'sish) soliq siyosatining samaradorligini va iqtisodiy faollikning oshganligini ko'rsatadi. Bu davrda, soliq siyosati va iqtisodiy islohotlar samarasi sifatida soliq tushumlarining o'sishi, mamlakatning iqtisodiy salohiyatining kuchayganligini va soliq tizimining yanada samarali ishlashini anglatadi.

Bevosita soliqlar tizimiga nazar tashlaydigan bo'lsak, soliq tushumlarining eng katta qismi bo'lib, o'zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Xususan, 2020 yilda bevosita soliqlarning umumi soliq tushumlari ichidagi ulushi 23,4 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2024 yilda bu ko'rsatkich 19,8 foizga tushib ketgan. Ammo, jadval ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki, mutlaq qiymatda bevosita soliqlardan olinadigan tushumlar ikki baravar ko'paygan. Qolaversa, 2020 yilda 7,433 milliard so'm bo'lgan tushumlar 2024 yilda 15,656,2 milliard so'mga yetgan. Mazkur tendensiya soliq baza sinining kengayishi va soliq imtiyozlarining qisqarishi bilan izohlanadi. Bu o'zgarishlar, soliqqa tortish tizimining yanada oshirilgan samaradorligi va soliq to'lovchilarning yanada intizomli bo'lishini ko'rsatadi. Bevosita soliqlarga kiruvchi asosiy soliq turlaridan biri, yuridik shaxslarning foyda solig'i hisoblanadi. 2020 yilda ushbu soliqqa tushgan miqdor 1,120,2 milliard so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024 yilda bu ko'rsatkich 3,502,2 milliard so'mgacha o'sgan, ya'ni 213 foizga oshgan. Ushbu o'sish, korporativ sektorning rivojlanishi va yuridik shaxslarning soliq intizomining yaxshilanganligini ko'rsatadi. Ayniqsa, 2024 yilda ushbu soliq turining umumi soliq tushumlaridagi ulushi 4,4 foizga oshgan. Boshqa so'zlar bilan aytganda, korporativ sektorning soliq to'lovlar umumi soliq tushumlarining bir qismiga aylandi, bu esa o'zgarishlarning ijobiy natijasi hisoblanadi.

Berilgan ko'rsatkichlar orasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlaridan olinadigan soliqlarni tahlil qilish alohida ahamiyat kasb etadi. Mikrofirmalar va kichik korxonalarining yagona soliq to'lovi 2020 yilda 967,9 milliard so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024 yilda bu miqdor 2,597,9 milliard so'mgacha oshgan. Ushbu ko'rsatkich 168 foizga o'sishning guvohidir. Kichik biznesning rivojlanishi, soliq tizimining o'zgarishlari va soliq imtiyozlarining kengaytirilishi bilan bog'liq. Kichik biznes sektorining o'sishi, mamlakat iqtisodiyoti uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, soliq tizimining yengillashishi va soliq to'lovchilarga ijobiy ta'sir etadi. Shuningdek, soliq tushumlarining tarkibida jismoniy

shaxslarning daromad solig‘ining o‘rni sezilarli darajada qisqargan. 2020 yilda jismoniy shaxslarning daromad solig‘i ulushi 10,3 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2024 yilda bu ko‘rsatkich 8,1 foizga tushib ketgan. Ammo, mutlaq qiymatda bu soliq turi bo‘yicha tushumlar 97 foizga o‘sgan. O‘zgarishlar, soliq tizimining yanada rivojlanayotgan kichik biznesga foydali ta’sir ko‘rsatishi va jismoniy shaxslarning daromad solig‘i orqali olingan tushumlarning o‘sishini ta’minlaydi.

Tahlilning muhim jihatidan biri infratuzilma solig‘i va boshqa soliq turlari bo‘yicha ma'lumotlar qiziqarli tendensiyani ko‘rsatmoqda. 2020-2023 yillar davomida ushbu soliq turining ulushi 1,4-2 foiz oralig‘ida o‘zgarib, mutlaq qiymatda atigi 19 foizga oshgan. Lekin, 2024 yil hisobotlarida infratuzilma solig‘i bo‘yicha ma'lumotlar keltirilmagan. Bu o‘zgarish, soliq tizimida islohotlarning amalga oshirilishi va soliq turining tartibga solinishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Mazkur o‘zgarishlar, infratuzilma solig‘i bo‘yicha tartibni yaxshilash va soliq tizimining umumiy samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan.

2020-2024 yillarda O‘zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan soliq tushumlarining o‘zgarish dinamikasi, soliq siyosatining samaradorligini va iqtisodiy faoliyatning rivojlanishini ko‘rsatadi. Umumiy soliq tushumlarining o‘sishi, bevosita soliqlar va kichik biznesning rivojlanishi, soliq tizimining yanada samarali ishlashini ta’milagan. Kichik biznes va tadbirkorlik subektlaridan olinadigan soliqlar, soliq tizimining o‘zgarishi va ijobjiy ta’sirini ko‘rsatadi. Biroq, soliq turlarining tarkibidagi ba’zi o‘zgarishlar, soliq siyosatining davom ettirilishini va yangi soliq turlarini tatbiq etishni talab etadi.

## 2-jadval

### Buxoro viloyatida mahalliy byudjet daromadlarini tushumlari, mln.so‘mدا

Ko‘rsatkichlar		Yillar				
		2020 yil	2021 yil	2022 yil	2023 yil	2024 yil
1.	<b>Bevosita soliqlar</b>	<b>258890</b>	<b>33552</b>	<b>35387</b>	<b>8322</b>	<b>894111,6</b>
.1	Yuridik shaxslardan olinadigan foya Solig‘i	29557, 4	45202, ,5	27734, ,2	2939, ,7	302253, 9
.2	Savdo va umumiy ovqatlanish	43685,	54023	67611	1555	100275,

	korxonalarining yagona soliq to‘lovi	4	,0	,5	5,7	8
1 .3	Mikrofirma va kichik korxonalar uchun yagona soliq to‘lovi	44328, 3	54074 ,1	63800 ,7	1468 0,7	94660,6
1 .4	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	94097, 1	99163 ,3	11155 9,1	2902 7,1	324027, 4
1 .5	Tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo‘yicha qat’iy belgilangan Soliq	39602, 3	47345 ,8	59810 ,2	1815 9,5	72893,9
1 .6	Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i	7619,9	35713 ,1	23359 ,4	2865 ,5	0
2 .1	Bilvosita soliqlar	447777	50482 1	58598 8	1064 70	1476894 ,3
2 .2	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	177364 ,0	20585 6,6	23517 9,5	3469 2,2	1211894 ,3
2 .3	Aksiz solig‘i	195470 ,6	20455 1,9	23168 5,8	4217 5,7	94059,4
2 .4	Bojxona boji	24499, 9	29657 ,7	29058 ,1	8019 ,3	76881,2
2 .5	Transport vositalari uchun benzin,dizel yoqilg‘isi va suyultirilgan gaz iste’moli uchun soliq	50442, 1	64755 ,0	90065 ,0	2158 3,2	94059,4
3 .6	Resursto‘lovlar va mulk solig‘i	59982, 4	65030 ,1	73207 ,4	2099 2,2	377399, 8
3 .7	Mulk solig‘i	15309, 4	17972 ,4	25606 ,2	7230 ,0	259225, 1

3 .2	Yer solig'i	43484, 7	45766 ,2	46507 ,6	1338 9,2	83703,4
3 .3	Yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq	-	-	-	-	32556,0
3 .4	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	1188,3	1291, 5	1093, 6	373, 0	1915,3
4 . .	Boshqa daromadlar	4575,0	12772 ,9	25664 ,2	7836 ,9	117893, 1

Yuqoridagi jadvalning moliyaviy ko'rsatkichlariga ahamiyat beradigan bo'lsak, Buxoro viloyatining mahalliy byudjet daromadlari 2020-2024 yillar oralig'iда qiziqarli va sezilarli o'zgarishlarni ko'rsatdi. Umumiylar daromadlar 2020 yilda 785,1 milliard so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024 yilda bu miqdor 2,87 trillion so'mgacha oshgan. Mazkur o'sish 265 foizni tashkil etadi va viloyat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini, moliyaviy barqarorlik va mustahkamlikning oshayotganligini anglatadi. Ushbu o'sish nafaqat soliqlar tizimi, balki viloyatdagi iqtisodiy faoliyat va soliq siyosatining yaxshilanishidan dalolat beradi. Shuningdek, ushbu davr ichida ba'zi qiyinchiliklar va muammolar ham yuzaga kelgan bo'lib, ularning yechilishi uchun turli chora-tadbirlar talab etiladi. Ayniqsa, 2023 yilda yuzaga kelgan ayrim pasayishlar viloyat soliq siyosatining yangi yo'naliishlarga o'tishiga ta'sir ko'rsatdi, bu esa kelgusi yillarda shunga o'xhash tushishlarning oldini olish uchun ehtiyyotkorlik bilan ishlab chiqiladigan chora-tadbirlarni talab qiladi.

Bevosita soliqlar bo'yicha daromadlar 2020 yilda 258,9 milliard so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024 yilda bu ko'rsatkich 894,1 milliard so'mgacha o'sgan. Bu, 233 foizga o'sish deb baholanadi va soliqqa tortish tizimining samaradorligini oshirishni ko'rsatadi. Ayniqsa, jismoniy shaxslarning daromad solig'i 2024 yilda 324 milliard so'mga yetib, bevosita soliqlarning 36 foizini tashkil etdi. Bu, viloyatda soliq to'lovchilarning soni ko'payganini va soliq intizomining yaxshilanishini ko'rsatadi. Biroq, 2023 yilda bevosita soliqlarning keskin pasayishi (83,2 milliard so'm) kuzatildi. Bu pasayish, pandemiya oqibatlari yoki soliq imtiyozlarining kengaytirilishi bilan izohlanishi mumkin. Soliq imtiyozlarining oshishi, ayrim soliq turlaridan tushumlarning kamayishiga olib kelgan bo'lishi mumkin. Shu sababli, soliq siyosatini optimallashtirish va pasayishlarni oldini olish uchun muhim choralar ko'riliishi shart. O'z navbatida, mazkur o'zgarishlar viloyat iqtisodiyotining yanada samarali

va barqaror rivojlanishiga xizmat qilishiga ishonch hosil qilish uchun soliq tizimining takomillashtirilishi va yangi chora-tadbirlarni amalga oshirish talab qiladi.

Bilvosita soliqlar bo'yicha daromadlar yanada jadal o'sishni ko'rsatdi. 2020 yilda bu ko'rsatkich 447,8 milliard so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024 yilda bu miqdor 1,48 trillion so'mgacha o'sgan. Bu o'sish 230 foizni tashkil etadi va viloyatning iqtisodiy faolligining oshishini, shuningdek, tadbirkorlik faoliyatining kengayishini anglatadi. Bilvosita soliqlarning asosiy qismi, qo'shilgan qiymat solig'idan olinadigan daromadlardir. 2024 yilda qo'shilgan qiymat solig'i 1,21 trillion so'mga yetib, bilvosita soliqlarning 82 foizini tashkil etdi. Ushbu moliyaviy ko'rsatkich, iste'molchilar xarajatlarining o'sishi va iste'mol bozorining kengayganligini anglatadi. Tadbirlar va iqtisodiy islohotlar, bilvosita soliqlardan olinadigan daromadlarni sezilarli darajada oshirdi, bu esa viloyatning iqtisodiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi. Bilvosita soliqlarning o'sishi, shuningdek, viloyatdagi iqtisodiy faollikning kuchayishi va sanoat hamda xizmatlar sektoridagi o'sish bilan bog'liq. Bu o'sish iste'molchilar ehtiyojlarining oshishi, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarining kengayishi natijasida yuzaga kelgan.

Resurslardan foydalanish soliqlari bo'yicha daromadlar 2020 yilda 599,8 milliard so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024 yilda bu miqdor 377,4 milliard so'mgacha o'sdi. Bu o'sish 529 foizni tashkil etadi va mulk solig'inining asosiy hissa qo'shganligini ko'rsatadi. Mulk solig'i 259,2 milliard so'mga yetib, resurslardan foydalanish soliqlari tarkibidagi asosiy manba bo'lib qolgan. Yer solig'i esa 83,7 milliard so'm darajasida qayd etilgan. Bu ko'rsatkichlar, viloyatda yer va mulkdan foydalanishdan olinadigan soliqlarning oshayotganligini va viloyatning tabiiy resurslaridan yanada samarali foydalanilayotganligini ko'rsatadi. Resurslardan foydalanish soliqlarining o'sishi, infratuzilma va yer usti resurslarining to'g'ri boshqarilishi va ularni yanada samarali boshqarish orqali mahalliy byudjetga qo'shimcha daromadlar keltirganini bildiradi. Ayniqsa, yer va mulkdan olinadigan soliqlar orqali budgetning shakllanishi, viloyatning tabiiy va iqtisodiy imkoniyatlarini to'liq amalga oshirishga imkon yaratadi.

2024 yilda Buxoro viloyatining "boshqa daromadlar" bo'yicha daromadlari 117,9 milliard so'mni tashkil etib, 2020 yilga nisbatan 25 baravar o'sdi. Bu ko'rsatkich, viloyatning moliyaviy mustaqilligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. "Boshqa daromadlar" turli manbalarni, shu jumladan, davlat aktivlaridan olinadigan daromadlarni, ijara berilgan mulkdan tushadigan daromadlarni va boshqa qo'shimcha manbalarni o'z ichiga oladi. Mazkur daromadlar, viloyatning iqtisodiy mustahkamligini va moliyaviy barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bilan bir qatorda, bu ko'rsatkich viloyatning moliyaviy

holatini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega, chunki mahalliy byudjetning oshishi va daromadlar manbalarining xilma-xilligi viloyatning mustaqilligi va moliyaviy barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. "Boshqa daromadlar"ning keskin o'sishi, viloyatning moliyaviy mustaqilligini oshirishi va byudjetning doimiy daromadlar manbalariga tayanish imkoniyatini yaratishi bilan ham muhim ahamiyatga ega.

Buxoro viloyatining mahalliy byudjet daromadlari 2020-2024 yillar davomida sezilarli o'zgarishlarga duch keldi. Umumiy daromadlar, bevosita va bilvosita soliqlar bo'yicha olingen daromadlar va boshqa manbalardan olinadigan daromadlar viloyat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ko'rsatadi. Bevosita soliqlarda o'sish, soliq to'lovchilar sonining ko'payishini va soliq tizimining yaxshilanishini anglatadi, bilvosita soliqlarda esa iqtisodiy faollikning oshishini ko'rsatadi. Resurslardan foydalanish soliqlari va boshqa daromadlarning o'sishi, viloyatning moliyaviy mustaqilligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, 2023 yilda bevosita soliqlarda kuzatilgan pasayishlar tahlil qilinishi va kelgusi yillarda soliq tushumlarining barqaror o'sishiga erishish uchun samarali choralar ko'riliши zarur. Buxoro viloyatining moliyaviy mustahkamligi, soliq siyosatining yanada samarali amalga oshirilishini va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashni talab etadi. Bu, viloyatning moliyaviy mustaqilligi va iqtisodiy o'sishining davom etishini ta'minlashga yordam beradi.

### 3-jadval

#### Buxoro viloyatida soliq to'lovchilar va ular to'lagan soliqlar hamda boshqa majburiy to'lovlar holati

Ko'rsatkichlar	2020yil		2021yil		2022yil		2023yil		2024yil	
	Soni	Soliq tushumi mlrd. so'm	Soni	Soliq tushumi mi mlrd. so'm	Soni	Soliq tushumi , mlrd. so'm	Soni	Soliq tushumi, mlrd. so'm	Soni	Soliq tushumi, mlrd. so'm
Umbelgilangan tartibda	634,5	125,6,3	713,0	150,2,9	750,5	169,9,7	765,8	40,1,5	261,6	198,3,8

	soliq to'lovchilar hilar											
.	Sod dalashti rilgan tartibda soliq to'lovchilar (fermer xo'j aliklaris iz)	176 98	127, 6	183 66	155, 4	195 06	191, 2	206 03	21 6,9	246 41	267, 7	
.1.	Yag ona soliq to'lov ovi	193 14	88,0 4	233 1	108, 1	297 4	131, 4	364 5	14 1,8	455 6	194, 9	
.2.	Qat' iy Bel gilanga n soliq	157 64	39,6 32	160 32	47,3 32	165 32	59,8 58	169 0	75, 85	200 85	72,8	

Buxoro viloyatida soliq to'lovchilar soni va ular tomonidan to'lanadigan soliq tushumlarining dinamikasi 2020-2024 yillar oralig'ida qiziqarli va qarama-qarshi tendentsiyalarini ko'rsatdi. Umumiy ko'rinishda, viloyatda ro'yxatdan o'tgan soliq to'lovchilar soni barqaror ravishda o'sib borgan bo'lsa-da, soliq tushumlarining dinamikasida turlicha o'zgarishlar yuzaga keldi. Bu, bir tomonidan, viloyatning iqtisodiy faolligining oshishi va soliq tizimining samaradorligi haqida ma'lumot beradi, boshqa tomonidan esa soliq siyosatidagi o'zgarishlar, iqtisodiy sharoitlar va pandemiyaning ta'sirini aks ettiradi.

Buxoro viloyatida soliq to‘lovchilar soni 2020 yilda 6345 tadan 2024 yilda 2616 taga kamaygan. Bu pasayish 2023 yilda keskin o‘zgarish (7658 tadan 2616 taga) bilan bog‘liq bo‘lib, bu davrdagi tahlilga ko‘ra, pandemianing salbiy ta’siri yoki soliq siyosatidagi o‘zgarishlarning natijasi sifatida izohlanishi mumkin. Pandemiya davrida ko‘plab kichik va o‘rta bizneslar faoliyatini vaqtincha to‘xtatgan yoki qisqartirgan, bu esa soliq to‘lovchilar sonining kamayishiga olib keldi. Shuningdek, soliq siyosatidagi o‘zgarishlar (masalan, soliq imtiyozlari, soddalashtirilgan tartiblar va boshqalar) ayrim soliq to‘lovchilarni tizimdan chiqishiga yoki ularning soliq to‘lovlari miqdorining kamayishiga sabab bo‘lgan bo‘lishi mumkin. Biroq, soliq tushumlari mutlaq o‘sishning ijobiy dinamikasini ko‘rsatmoqda. 2020 yilda viloyat soliq tushumlari 12563,9 milliard so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2024 yilda bu ko‘rsatkich 1983,8 milliard so‘mgacha o‘sgan. Bu o‘sish, soliq to‘lovchilar soni kamaygan bo‘lsa-da, qolgan soliq to‘lovchilarning moliyaviy salohiyatining oshgani va soliq tizimining samaradorligini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida yuzaga kelgan bo‘lishi mumkin. Yoki soliq to‘lovchilarning soliq majburiyatlarini o‘z vaqtida va to‘liq bajarayotganligi natijasida soliq tushumlari o‘sishni davom ettirgan.

Fermer xo‘jaliklari uchun soddalashtirilgan tartibdagi soliq to‘lovchilar soni 2020 yilda 17698 tadan 2024 yilda 24641 tagacha oshgan. Bu o‘sish qishloq xo‘jaligi sohasining rivojlanishi va fermerlik faoliyatining jadallashtirilishini aks ettiradi. Fermer xo‘jaliklarining ko‘payishi, ayniqsa, qishloq joylaridagi iqtisodiy faollikning oshishini ko‘rsatadi. Bu tendentsiya, qishloq xo‘jaligiga e’tibor qaratish va fermerlarga qo‘sishma soliq imtiyozlarining taqdim etilishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Ularning soliq tushumlari ham 127,6 milliard so‘mdan 267,7 milliard so‘mgacha ikki barobar o‘sgan. Bu, o‘z navbatida, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining ortishi va shu orqali soliq bazasining kengayishini anglatadi.

Soddalashtirilgan tartib ichida yagona soliq to‘lovchilar soni 1934 tadan 4556 tagacha sezilarli o‘sdi (136% o‘sish). Ularning soliq tushumlari ham 88 milliard so‘mdan 194,9 milliard so‘mgacha o‘sgan, bu guruhning iqtisodiy faolligining oshganligini ko‘rsatadi. Yagona soliq to‘lovchilarning faoliyatining kengayishi, ayniqsa kichik va o‘rta bizneslar o‘rtasida tizimni yanada soddalashtirish va imtiyozlar taqdim etish orqali soliq yig‘ish samaradorligining oshishini ta’minlagan. Bu sohadagi o‘sish viloyatning soliq siyosatini optimallashtirish va soliq to‘lovchilarga eng qulay sharoitlar yaratish orqali ro‘y berdi. Qat’iy belgilangan soliq to‘lovchilar soni 15764 tadan 20085 tagacha o‘sgan bo‘lsa-da, ularning soliq tushumlari nisbatan kamroq sur’atda – 39,6 milliard so‘mdan 72,8 milliard so‘mgacha o‘sgan. Bu o‘sishning sekin bo‘lishi, ehtimol, ushbu to‘lovchilar

kategoriyasidagi iqtisodiy faoliyatning pastligi yoki soliq tizimidagi ayrim kamchiliklar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Shuningdek, bu soliq to'lovchilarning ko'plari kichik bizneslar bo'lib, ular o'z faoliyatini cheklashgan yoki ba'zi soliq imtiyozlaridan foydalanishgan. Shuning uchun, ushbu to'lovchilardan olinadigan soliq tushumlari mutlaq o'sishning pastligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, Buxoro viloyatida soliq to'lovchilar bazasining tarkibi va ularning soliq hissasi sezilarli o'zgarishlarga uchragan. Viloyat iqtisodiyotida fermer xo'jaliklarining o'sayotgan ahamiyati, yagona soliq to'lovchilarning faollashuvi, shuningdek umumiyligida soliq to'lovchilar sonining kamayishi bilan birga ularning soliq tushumlarining o'sishi diqqatga sazovor. Bu tendentsiyalar viloyatda soliq siyosatini yanada takomillashtirish, soliq to'lovchilar bazasini kengaytirish va soliq intizomini mustahkamlash zarurligini ko'rsatmoqda.

Buxoro viloyatida soliq tizimi rivojlanayotgan iqtisodiyotga mos ravishda takomillashmoqda. Soliq to'lovchilar sonining kamayishi, bir tomondan, ba'zi iqtisodiy sektorlardagi muammolarni, boshqa tomondan esa soliq siyosatining yangilanishi va sohalar bo'yicha soliq to'lovchilarni tasniflashning samarali o'tkazilishini ko'rsatadi. Shu bilan bir qatorda, fermer xo'jaliklarining o'sishi, soddalashtirilgan tartibdagagi soliq to'lovchilarning faollashuvi va yagona soliq tizimining samarali ishlashini ta'minlash, viloyat soliq siyosatining rivojlanishida muhim o'rinni kasb etadi.

Buxoro viloyatida soliq to'lovchilar soni va soliq tushumlarining dinamikasidagi o'zgarishlar, viloyatning iqtisodiy rivojlanishiga va soliq siyosatining samarali amalgamasi oshirilishiga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Umuman olganda, soliq to'lovchilarning faollashuvi va soliq tushumlarining o'sishi, viloyatning iqtisodiy o'sishining barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, soliq siyosatini takomillashtirish, soliq to'lovchilarga imtiyozlar yaratish va ularning moliyaviy salohiyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar davom ettirilishi kerak. Bu, o'z navbatida, viloyatning soliq bazasining kengayishini va iqtisodiy rivojlanishining yanada barqaror bo'lishini ta'minlaydi.

**Xulosa.** Soliq ma'murchiliginin takomillashtirish zaruriyati va takomillashtirishning asosiy yo'naliishlari sifatida quyidagi ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Insofli soliq to'lovchilarga oxirgi ikki yil ichida soliq majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq bajarib kelgan soliq to'lovchilar kiritilishi maqsadga muvofiq;

2. Vaqtinchalik moliyaviy qiychiliklarga duch kelgan insofli soliq to'lovchilarga - soliq ta'tili berish to'g'risida tegishli qaror qabul qilingan kundan e'tiboran yigirma to'rt oygacha bo'lgan muddatgacha, yagona soliq to'lovini to'lovchilarga esa yagona soliq

to‘lovini to‘lash bo‘yicha davlat ro‘yxatidan o‘tgan paytdan bir yilgacha bo‘lgan muddatga soliq ta’tillari berilishi joriy etilishi kerak;

3. Kichik biznes subektlarini aniqlash mezonlarini takomillashtirishda ularni faqat xodimlar soni mezoni bo‘yicha emas, balkimuayyan davrga tovarlar aylanmasining umumiy hamjidan kelib chiqib aniqlash tartibiga o‘tish maqsadga muvofiq.

4. Kichik biznes subektlari tomonidan soliq hisobotlarini tuzishdagi murakkabliklar tufayli tizimli ravishda uchrayotgan xatoliklarni bartaraf etish maqsadida, soliq hisobotlarini soliq idoralari yoki soliq maslahatchilari tomonidan tuzish bo‘yicha hamda kichik biznes subektlarida onlayn rejimida ishlovchi elektron nazorat-kassa mashinalarining avtomatlashtirilgan monitoring qilish dasturini joriy etish.

5. Davlat soliq xizmati organlari xizmat ko‘rsatish, savdo va umumiy ovqatlanish sohasidagi tadbirkorlik subektlari uchun yagona soliq to‘lovini, yagona yer solig‘ini, yuridik shaxslardan yer solig‘ini, shuningdek, bank aylanmalar haqidagi ma’lumotlar, shuningdek, boshqa tashqi manbalar asosida deklaratsiya qilinadigan daromadlar bo‘yicha jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini hisoblash tarzida soliq to‘lovchilarga servis xizmatlari ko‘rsatishi hamda hisoblangan soliqlar summasi haqida soliq to‘lovchining "shaxsiy kabineti" orqali xabarnoma yuborishni yshlga qo‘yish.

6. Tayyorlov-savdo faoliyati uchun nazarda tutilgan alohida yagona soliq to‘lovi stavkasini bekor qilish va ularga ham yagona soliq to‘lovi stavkasini belgilash.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M., Mirziyoyevning murojaatnomasi, 2018.
11. Chernik D. Nalogi v rinochnoy ekonomike. // Finansi, – Moskva, 1992. - № 3. – S. 19.;
12. O‘limasov A., Sharifxo‘jayev M., Iqtisodiyot nazariyasi.–Toshkent: Mehnat, 1995. – 377 b.;
13. Malikov T., Jalilov P., Byudjet-soliq siyosati. Toshkent moliya instituti -T.: Akademnashr, -2011. 3-b.